

HUQUQIY MADANIYAT KADRIYAT SIFATIDA

Djuraev Avaz Axmedjanovich,

TDTU filiali dotsenti

Mirzaaxmedov I., TDTU filiali 3 bosqich talabasi

Ma'lumki, mustaqillik odamlari qonunga va qonunchilikka munosabatni tubdan o'zgartirdi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston har bir fuqarosi, yoshlari o'z huquqini bilishi fuqarolik jamiyatida erkin fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish kabi imkoniyatlarga

Mustaqillik mamlakatimiz tarixida, xalqimiz hayoti va taqdirida tub burilish yasadi. Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan yaratadigan bo'ldiq Hayotimiz va umumiy xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umume'tirof etilgan demokratik mezonlarga monand qilib ko'rishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo'ldik.

Qariyb uch ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek milliy davlatchiligining boy tajribalarini, uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy asoslarini ilmiy tadqiq etish, har tomonlama izchil o'rganish huquqiy fanlar va huquqshunoslarning muhim vazifasi bo'lib qoldi. Xususan, o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribalariga tayanish, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan an'analarini xisobga olib demokratik tamoyillarga asoslangan insonparvar jamiyat barpo etishdek ulug'vor

maqsadning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddimasida alohida belgilab qo'yilganligi ham bejiz emas.

Shu nuqtai nazardan aytadigan bo'lsak mamlakatimiz aholisining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaiiyatini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvarъ kuni qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy ong va xuquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618 sonli Farmoni, milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash hamda yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish kabi muhim jihatlarni o'zida aks etgan huquqiy xujjat bo'ldi.

Ana shu teran fikr huquqiy davlat asoslarini takomillashtirishning istiqbolini belgilab berdi. Shu sababli ham huquqiy madaniyatga tobora katta ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas. Negaki, u yurtboshimizning rivojlangan demokratik davlat qurishning sharti sifatida ilgari surgan qonun ustuvorligi g'oyasining isboti bo'lishi bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining har tomonlama takomillashib borayotganini ko'rsatuvchi mezon hamdir.

Jamiyatni isloh etishning besh tamoyili shu o'tgan vaqt ichida o'zining hayotiyiligini yorqin namoyish etdi. Buning uchun keling, qonun ustuvorligi tamoyili emas, «Kuchli ijtimoiy siyosat» tamoyili haqida muloxdza qilib

ko'rayliq Milliy mentalitetimizga xos bo'lgan ushbu tamoyilni hayotga tatbiq etishni huquqiy madaniyatsiztasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki, huquqiy madaniyati shakllangan kishigina kuchli ijtimoiy siyosatni to'g'ri tushunadi va uni amalga oshirish jarayonida bevosita ishtirok etishga intiladi, buni fuqarolik jamiyati a'zosining tabiiy burchi deb biladi. Biz, mustaqil, istiqboli porloq mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z maqomiini ana shunday anglashini astoydil istaymiz. Ushbu risolada aholining huquqiy madaniyati kay tarzda yuksalib borayotgani, ushbu makondagi ijtimoiy muhit va uni takomillashtirish uchun nimalar qilish kerakligi hakida fikr yuritiladi.

Shuningdek huquqiy madaniyatningtadrijiy shakllanish jarayonida faqatgina huquqshunoslar emas, balki jamiyatning ilg'or ziyolilari, jamoat tashkilotlari, oila, mahalla va boshqa tuzilmalar ham bevosita va bilvosita ishtirok etishlari lozimligi haqida risolada atroflicha ma'lumot berilgan. Huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida ularning vazifalari nimalardan iborat bo'lishi kerak? Shu va hakoza masalalar haqida sodda, tushunarli tilda hikoya qilingan.

Taniqli huquqshunoslar, ma'muriy organlar raxbar va mas'ul xodimlarining matbuot orqali chiqib turishlariga tez-tez guvoh bo'lamiz. Ularda keltirilgan misollar va raqamlar esa ko'pincha soxa mutaxassislariga mo'ljallangan bo'ladi. Qator qonun moddalarining surunkali takrorlanaverishi oddiy gazetxonni chalg'itadi. Undan ko'ra oddiy, jonli va hayotiy misollar ko'pchilik uchun qiziqarliroq.. Tizim faoliyati haqidagi xisobotlarga esa mutaxassislar tushunadi, xolos. Kodekslarni nommanom aytish, qayta hikoya qilib berishning aholi huquqiy madaniyatini takomillashtirishga yordam berishi dargumon. Nazarimizda,

bugun qonunlarimizning kishilar taqdirida aks etishi, ularni jamiyatning faol a'zosiga aylantirishdagi roli haqida fikr yuritish muhimroq

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega bo'lib, kelgusida vatan koriga yaraydigan, fidoyi inson bo'lib yetishishlari kerakligi muxim masaladir.

Yoshlar o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish g'oyalari keng targ'ib qilish kerak.

<https://doi.org/10.34920/uzxdmk/2022/038>

ЮРТИМИЗДА БОЛА ХУҚУҚЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ

Юлдашев Шерали Нуралиевич,

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Жамоат хавфсизлигини таъминлаш кафедраси катта ўқитувчиси

Инсон қадрини улуғлаш борасида олиб борилаётган кенг ислохатлар, инсон ҳуқуқларини таъминлаш, аҳоли ва жамоат бирлашмаларининг сиёсий фаоллигини ошириш бўйича тизimli ишлар, мамлакатимиз тарақиётини янги босқичларга кўтараётган бир